



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3758
2026 - yil 19 - Yanvar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Elektron sog'liqni saqlash” axborot tizimida yaratilgan “Elektron poliklinika”, “Elektron shifoxona”, “Elektron tibbiy karta” va “Elektron retsept” modullaridan foydalanish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-sentabrdagi 570-son “Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi [qaroriga](#) muvofiq buyuraman:

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Elektron sog'liqni saqlash” axborot tizimida yaratilgan “Elektron poliklinika”, “Elektron shifoxona”, “Elektron tibbiy karta” va “Elektron retsept” modullaridan foydalanish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil va O'zbekiston Savdo sanoat palatasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi.

Vazir
2025-yil 24-dekabr
19-son



XUDAYAROV ASILBEK
ANVAROVICH

Kelishildi:

Vazirning birinchi o'rinbosari
2025-yil 17-dekabr



UMAROV OLIMJON
MUXAMADJANOVICH

Vakil o'rinbosari
2025-yil 10-dekabr



URUNOV JAMSHID
OLIMOVICH

Rais
2025-yil 9-dekabr



VAXABOV DAVRON
ABDUJALALOVICH

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining
2025-yil 24-dekabrdagi 19-son buyrug'iga

ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining
“Elektron sog'liqni saqlash” axborot tizimida yaratilgan
“Elektron poliklinika”, “Elektron shifoxona”, “Elektron tibbiy
karta” va “Elektron retsept” modullaridan foydalanish tartibi
to'g'risidagi
YO'RIQNOMA**

Ushbu Yo'riqnoma barcha tibbiyot tashkilotlari va dorixonalarda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Elektron sog'liqni saqlash” axborot tizimida yaratilgan “Elektron poliklinika”, “Elektron shifoxona”, “Elektron tibbiy karta” va “Elektron retsept” modullaridan (bundan buyon matnda modullar deb yuritiladi) foydalanish hamda ushbu modullarga tegishli ma'lumotlarni uzatish tartibini belgilaydi.

1-bob Umumiy qoidalar

1. Mazkur Yo'riqnomada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

avtorizatsiya – ma'lum shaxsga yoki shaxslar guruhiga muayyan harakatlarni amalga oshirish huquqini berish;

identifikatsiya – foydalanuvchilarning shaxsini aniqlash maqsadida ularga identifikator (noyob nomlar) tayinlash yoki tayinlangan identifikatorlarni (noyob nomlar) identifikatorlar ro'yxati bilan solishtirish;

“Elektron poliklinika” moduli – ambulator sharoitda ko'rsatiladigan barcha tibbiy xizmatlar bilan bog'liq jarayonlarni (harakatlar) jamlash, ma'lumot almashish, tegishli hisobotlarni shakllantirish kabi funksiyalarni amalga oshiruvchi axborot dasturi;

“Elektron shifoxona” moduli – statsionar sharoitda ko‘rsatiladigan barcha tibbiy xizmatlar bilan bog‘liq jarayonlarni (harakatlar) jamlash, ma‘lumot almashish, tegishli hisobotlarni shakllantirish kabi funksiyalarni amalga oshiruvchi axborot dasturi;

“Elektron retsept” moduli – elektron retsept bilan bog‘liq barcha jarayonlarni (harakatlar) jamlash, ma‘lumot almashish, tegishli hisobotlarni shakllantirish kabi funksiyalarni amalga oshiruvchi axborot dasturi;

“Elektron tibbiy karta” moduli – ambulator va statsionar sharoitda bemor salomatligiga oid ma‘lumotlar shakllantiriladigan, tashxislar, tashriflar, muolajalar, tahlillar, kasallik tarixi va tibbiyot xodimi tomonidan kiritilgan ma‘lumotlarni raqamli formatda jamlab turadigan axborot dasturi.

2. Tibbiyot tashkilotlari yoki dorixonalar tomonidan modullarni o‘rnatish uchun O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligiga so‘rovnoma taqdim etiladi. So‘rovnomada modulga kirish huquqi berilgan shaxslarning quyidagi ma‘lumotlari ko‘rsatilishi lozim:

familiyasi, ismi va otasining ismi;

lavozimi va ular faoliyat yurituvchi bo‘linmaning nomi;

pasport (ID-karta) seriyasi va raqami;

jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR);

elektron pochta manzili.

3. Tibbiyot tashkilotlari yoki dorixonalarda modullarni o‘rnatish so‘rovnoma taqdim etilgan kundan boshlab 15 ish kuni ichida O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda “Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yagona integrator – “UZINFOCOM” tomonidan [bepul amalga oshiriladi](#).

4. Modullarda shaxsga doir ma‘lumotlarni qayd etish, uzatish (almashish) va saqlash O‘zbekiston Respublikasining [“Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi](#), [“Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi](#) va [“Fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi](#)

qonunlari hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

5. Tibbiyot tashkiloti yoki dorixonalar modullarda ma'lumotlarning to'liq va aniq kiritib borilishi hamda yangilanishi uchun mas'ul hisoblanadi.

2-bob. Modullardan foydalanish va ulardagi ma'lumotlarni uzatishga qo'yiladigan talablar

6. Tibbiyot tashkilotlari va dorixonalardagi modullarga kirish huquqi faqat shifokor, dorixonaning farmatsevt ma'lumotiga ega xodimi, hamshira, ro'yxatga oluvchi xodimlarga (bundan buyon matnda foydalanuvchilar deb yuritiladi) beriladi.

7. Foydalanuvchilar Yagona identifikatsiya tizimi (OneID) orqali modullarda avtorizatsiya va identifikatsiyadan o'tadi hamda ularga shaxsiy kabinet ochiladi.

8. Shaxsiy kabinetda quyidagi ma'lumotlar saqlanishi shart:

foydalanuvchining identifikatori (ID-raqami);

shaxsiy kabinetning yaratilgan sanasi va vaqti;

foydalanuvchining lavozimi va shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari.

9. Foydalanuvchilar shaxsiy kabinetga Yagona identifikatsiya tizimi (OneID) yoki elektron raqamli imzo orqali kirish huquqiga ega bo'ladi, bunda dasturga o'ziga tegishli bo'lmagan Yagona identifikatsiya tizimi (OneID) yoki elektron raqamli imzo orqali kirish taqiqlanadi.

10. Tibbiyot tashkiloti yoki dorixonalar foydalanuvchilar bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan yoki boshqa lavozimga o'tkazilgan vaqtdan boshlab uch ish kuni ichida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligini yozma xabardor qilishi kerak.

Bunda, uch ish kuni ichida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan foydalanuvchilarning modullarga kirish huquqlari yangilanadi yoki ularning shaxsiy kabineti bloklanadi hamda arxivga ko'chiriladi va kamida bir yil davomida saqlanadi.

11. Foydalanuvchi tomonidan quyidagi ma'lumotlar "Elektron tibbiy karta" moduliga real vaqt rejimida kiritiladi va bir vaqtning o'zida ushbu ma'lumotlar tegishli ravishda qolgan modullarga avtomatik ravishda uzatiladi:

bemorning jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR), familiyasi, ismi va otasining ismi, tug'ilgan sanasi;

bemorning tashxis va tibbiy ko'rsatkichlari;

laborator va instrumental tahlil natijalari;

dori vositalari bo'yicha elektron retseptlar;

ambulator va (yoki) statsionar davolanish yozuvlari.

12. "Elektron retsept moduli"ga ma'lumotlarni uzatish [O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-sentabrdagi 570-son qarori bilan tasdiqlangan Tibbiyot tashkilotlarida retsept bilan beriladigan dori vositalarini elektron retsept asosida tayinlash tartibi to'g'risidagi nizomga](#) asosan amalga oshiriladi.

13. Modullarda foydalanuvchilar tomonidan quyidagi asosiy vazifalar amalga oshiriladi:

bemor haqidagi ma'lumotlarni modulga kiritish (ro'yxatdan o'tkazish);

tashxis va tibbiy ko'rsatkichlarni kiritish va mavjud ma'lumotlarni yangilash;

laborator va instrumental tahlil natijalarini shakllantirish;

dori vositalari bo'yicha elektron retseptlarni shakllantirish;

ambulator va statsionar davolanish yozuvlarini elektron yuritish;

davolanish jarayonlarini elektron yuritish;

elektron tibbiy xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlar uzatish;

boshqa modullar bilan axborot va ma'lumotlar almashish.

14. “Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yagona integrator – “UZINFOCOM”:

foydalanuvchilarni har yili kamida bir marotaba xatlovdan (inventarizatsiyadan) o‘tkazadi va modullarga kirish huquqlarini qayta ko‘rib chiqadi;

modullarning ishlashi va sinovdan o‘tkazilishi davrida axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta‘minlaydi hamda berilgan modullarda ishlash to‘g‘riligini nazorat qiladi.

15. Bemorlar modullarga kiritilgan o‘zlari haqidagi ma‘lumotlar, elektron tibbiy kartasi, kasallik tarixi yoki unga tayinlangan elektron retseptlarni “DMED” mobil ilovasi orqali ko‘rishlari va yuklab olishlari mumkin.

16. Foydalanuvchilar quyidagi huquqlarga ega:

modullardagi bemorning ma‘lumotlariga kirish;

modullarga bemor haqidagi ma‘lumotlarni kiritish va mavjud ma‘lumotlarni yangilash;

zarur hollarda elektron shaklda boshqa ma‘lumotlarni uzatish.

17. Foydalanuvchilar:

modullardagi shaxsga doir ma‘lumotlarni maxfiy saqlashi;

modullarga kirish huquqini (shu jumladan, modullarga kirish uchun Yagona identifikatsiya tizimi (OneID) login va paroli yoki elektron raqamli imzo kodlarini) boshqa shaxslarga bermasligi;

har bir tibbiy yozuvni real vaqtda kiritishi;

noto‘g‘ri yoki soxta ma‘lumot kiritish holatlariga yo‘l qo‘ymasligi lozim.

3-bob. Yakuniy qoida

18. Mazkur Yo‘riqnoma talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.